

20 25-yil 31-iyuldagি 0100/803/11-
250 1491-sonli Bosh shartnomaga
1-ILOVA

GAROVGA QO'YILAYOTGAN TRANSPORT VOSITASINI SUG'URTALASH OMMAVIY OFERTASI

Mazkur Ommaviy oferta (keyingi o'rinnlarda "Oferta") "KAPITAL SUG'URTA" AJ ning (keyingi o'rinnlarda "Sug'urtalovchi") noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (keyingi o'rinnlarda "Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi") yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida, qonunchilikka zid bo'limgan tartibda Sug'urtalovchining dasturiy ta'minotida (keyingi o'rinnlarda "axborot tizimi") sug'urta shartnomasini tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi shartnoma tomonlaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlanishi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan so'ng unga elektron sug'urta polisi Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinnlarda "Yagona tizim") orqali rasmiylashtiriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur oferta shartlariga ko'ra, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining mulkka egalik qilish, boshqarish va foydalanish huquqi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalangan mulk haqidagi ma'lumotlar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan to'ldirilgan ariza-anketa va sug'urta polisida ko'rsatiladi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga roziligi ifodalanadi:

1.2.1. mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

1.2.2. arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yo'li orqali Sug'urta polisini amal qilishining butun muddati davomida hamda sug'urta polisini amal qilishi tugagan sanadan boshlab 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

1.3. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi sifatida ushbu Oferta shartlariga ko'ra Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli va huquqiy layoqatli jismoniy shaxslar, O'zbekiston fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtinchalik yashovchi chet el fuqarolari bo'lishi mumkin.

1.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

1.5. Sug'urtalovchining axborot tizimida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchidan uning **elektron pochta manzili** va/yoki **mobil telefon raqami** mavjudligi talab qilinadi.

1.6. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritishi Sug'urta shartnomasini tuzish uchun ariza bo'lib

hisoblanadi.

1.7. Sug'urtalovchi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 62-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi va Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.8. "Oferta", "Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1.9. Oferta orqali Sug'urta shartnomasini tuzish tartibi:

1.9.1. Mazkur Oferta Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

1.9.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

1.9.3. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiradi;

1.9.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'Imaganida sug'urta hodisasi yuz bergen taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta tovoni to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

1.9.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

1.9.6. Ofertada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligin tegishli tugmani bosish orqali (□/☒) tasdiqlaydi. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (*keyingi o'rinnarda "Ariza"*) Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

1.9.7. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini (sug'urta tavakkalchiligini) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

1.9.8. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasidan foydalanshga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

1.9.9. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan sug'urta polisini (polisga havolani) olishi Sug'urta shartnomasi taraflari sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

1.9.10. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

1.10. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovini amalga oshirish tartibi:

1.10.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

1.10.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi,

Garovga qo'yuvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

1.10.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi elektron to'lov tizimini, bank hisob raqami orqali tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

1.10.4. Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovi to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, uni Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining elektron pochta manziliga yo'llaydi va/yoki Sug'urta polisining seriyasi va raqami, Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchini xabardor qiladi.

1.10.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

1.10.6. Sug'urtalovchining axborot tizimida "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Oferta shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

1.10.7. Mazkur Shartnomanining rus va ingliz tillardagi matni faqat ma'lumot tariqasida taqdim etilishi mumkin. Agar rus, o'zbek va ingliz tillardagi matnlarni talqin qilishda biror bir tafovut vujudga kelgan taqdirda, mazkur Shartnomanining o'zbek tildagi matni boshqa tillardagi matnga nisbatan ustuvor kuchga ega bo'ladi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Shartnomada qo'llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma'nolarga ega:

Sug'urta polisi – sug'urta polisida ko'rsatilgan muayyan Qarz oluvchiga Sug'urtalovchi tomonidan Qarz oluvchi nomiga beriladigan ushbu Shartnomani tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda sug'urta mukofoti to'langanidan so'ng Qarz oluvchi/Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi ga sug'urta polisi beriladi.

Sug'urta summasi – Shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchining Qarz oluvchi va/yoki Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi oldidagi majburiyatlar hajmini ifodalovchi pul miqdori.

Kreditning qaytarilmasligi tavakkalchiligidan sug'urta qilish bo'yicha Qarz oluvchi kreditning asosiy summasini to'lashi munosabati bilan sug'urta muddati tugaganda sug'urta summasining miqdori to'langan asosiy qarz miqdoriga kamayadi.

Sug'urta qiymati – ob'ektning haqiqiy qiymati.

Sug'urta tovoni – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta summasi doirasida yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan pul.

Sug'urta mukofoti – mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga to'lanishi shart bo'lgan sug'urta to'lovi.

Sug'urtalangan transport vositasi (TV) – kredit mablag'lari hisobiga sotib olingan, sug'urta tadbiq etiladigan hamda sug'urta polisida ko'rsatilgan Qarz oluvchi nomiga hujjatlashtirilgan, belgilangan tartibda garovga qo'yilgan transport vositasi (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yengil va yuk avtomobillar, xorijiy ishlab chiqaruvchilarning yengil va yuk avtomobilari/elektromobilari, maxsus texnikalar, avtobus va mikroavtobuslar, elektrobuslar yuk ko'tarish mashina va mexanizmlari).

Haydovchi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sug'urtalangan transport vositasini hamda tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqiga, belgilangan namunadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lgan va sug'urtalangan transport vositasini qonuniy ravishda boshqaradigan jismoniy shaxs.

Sug'urta hodisasi to'g'risidagi qaror – voqea sug'urta hodisasi deb e'tirof etilganidan so'ng Sug'urtalovchi tomonidan tuziladigan va sug'urta tovonini to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjat.

Ommaviy oferta shaklidagi ariza (ariza-anketa) – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta ob'ekti, Kredit shartnomasi hamda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib, ushbu ma'lumotlar Sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug'urta mukofoti to'langandan so'ng aniq bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan hujjat;

JFODLTMVOQQTM - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish;

3. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta muddati davomida quyidagilar oqibatida sug'urtalangan transport vositasining yo'qolishi yoki zararlanishi (shikastlanishi) sug'urta hodisasi hisoblanadi:

3.1.1. yong'in, portlash, chaqmoq urishi;

3.1.2. toshqin, dovul, bo'ron, do'l, sel;

3.1.3. tabiiy ofatlar: zilzila, qor ko'chkisi, yer cho'kishi, yorilishi va boshqa holatlar;

3.1.4. yo'l-transport hodisasi;

3.1.5. yod jismlarning qulashi;

3.1.6. Texnogen tusdagi favqulodda xodisalar;

3.1.7. Transport vositasiga o'rnatilgan gaz balloni portlashi;

3.1.8. uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari (talonchilik, o'g'irlilik, hujum, olib ochish va boshqalar);

3.2. Mazkur Shartnomaga muvofiq quyidagi hollarda sug'urta hodisasi tan olinmaydi va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi:

3.2.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta hodisasi yuz bergenligi to'g'risidagi hujjatlarni 72 soat ichida Sug'urtalovchiga taqdim etmaganligi sababli qaror qabul qilishning iloji bo'limganda;

3.2.2. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasining sabablari va holatlarini aniqlashda, shuningdek zarar miqdorini belgilashda ishtiroy etishiga to'sqinlik qilganda;

3.2.3. qonun hujjatlarda belgilangan tartibda texnik ko'rikdan o'tmagan sug'urtalangan transport vositasidan foydalanish (ekspluatatsiya) (shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda sertifikatsiyadan o'tmagan gaz ballon uskunasi o'rnatilgan sug'urtalangan transport vositasidan foydalanish (ushbu istisno ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan gaz ballon uskunasi o'rnatilgan transport vositalariga taalluqli emas);

3.2.4. Qarz oluvchi/Haydovchi tomonidan sug'urtalangan transport vositasini mast holatda (alkogol, giyohvandlik vositalari va boshqalar) boshqarishi oqibatida;

3.2.5. temir yo'l kesishmalarini kesib o'tish, taqiqlovchi svetofor belgisidan o'tish yoki belgilangan yo'naliшga qarshi harakatlanish qoidalarini buzish, belgilangan harakat tezligini oshirish;

3.2.6. transport vositasida yonuvchi, portlovchi va boshqa moddalarni tashish qoidalarini buzishi natijasida sodir bo'lgan hodisalardan;

3.2.7. ijara, tekinga foydalanish va qayta garovga qo'yishda sug'urtalovchining yozma roziligi olinmaganda.

3.3. Shartnoma doirasida sug'urtalangan transport vositasiga quyidagi sabablarga ko'ra to'liq yoki qisman yetkazilgan zarar qoplanmaydi:

3.3.1. harbiy bosqinchilik harakati, harbiy harakatlar yoki urushga o'xhash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki e'lon qilinmaganligidan qat'i nazar), fuqarolar urushi;

3.3.2. qo'zg'olon, ommaviy tartibsizliklar, milliy xarakterdagи ish tashlashlar;

3.3.3. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakati;

3.4. Sug'urta hodisasi natijasida sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zarar miqdoridan sug'urta tovoni miqdorini belgilashda quyidagilar istisno etiladi:

3.4.1. transport vositasining tabiiy eskirishi shu jumladan uning alohida qismlari va agregatlarining ishlashi va/yoki ishlamay turishi qoplanmaydi biroq tabiiy eskirishi oqibatida transport vositasining shikastlanishi yoki nobud bo'lisi asoslari keltirilganda mazkur Sharhnomasi bo'yicha qoplanadi;

3.4.2. sug'urtalangan transport vositasini zavod-ishlab chiqaruvchi nuqsonlari;

3.4.3. sug'urtalangan transport vositasini takomillashtirish bilan bog'liq Qarz oluvchining xarajatlari;

3.4.4. transport vositasining **bozor qiymatining yo'qotilishi**.

3.5. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Ariza-anketada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Sharhnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik 0,4 foizdan kam 2,0 foizdan ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Har bir alohida sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit sharhnomasi bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'limgan summani tashkil qiladi.

4.4. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-anketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining bank hisobvarg'iga to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta sharhnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI

5.1. Ushbu Sharhnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan. Sharhnomasi Tomonlarning maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxslari imzolagan kundan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti (yoki uning birinchi qismi) Sug'urtalovchi bank hisob raqamiga kelib tushgan sanadan keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.

5.2. Sug'urta Sharhnomasi/Polisi quyidagi hollarda tugatiladi:

5.2.1. Sug'urtalovchining javobgarlik muddati tugaganda;

5.2.2. Sug'urtalovchi tomonidan Sharhnomasi/Polis bo'yicha majburiyatlarining to'liq hajmda bajarilganda;

5.2.3. Sharhnomasi/Polis bekor qilingan (muddatidan ilgari tugatilgan) taqdirda:

a) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining yozma arizasiga binoan;

b) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sharhnomasi/Polis bo'yicha majburiyatlarining bajarilmaganligi tufayli;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. Sug'urta Sharhnomasi/Polisi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinganda va/yoki kredit sharhnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda to'langan sug'urta mukofotining sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qolgan mablag'ni hamda Sug'urtalovchi tomonidan qilingan xarajatlar uchun 50 (ellik) foizi chegirib qolning holda Sug'urta qildiruvchiga qaytarib beriladi (agar sug'urta Polisining amal qilish vaqtida sug'urta tovoni to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi).

5.4. Sharhnomasi/Polisi bekor qilish niyatlarini haqida agar boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Sug'urtalovchi bir-birlarini sug'urta Sharhnomasi/Polisi tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kuni avval yozma ravishda ogohlantirishlari shart. Sug'urta Sharhnomasi/Polisi bildirishnomada

Shartnoma/Polisning amal qilishi tugatiladigan kun sifatida ko'rsatilgan kunning 00.00 soatidan e'tiboran tugatilgan hisoblanadi.

5.5. Sug'urta Ariza-anketa rasmiylashtirilgan/tuzilgan vaqtidan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin:

5.5.1. Ariza-anketada ko'rsatilgan sug'urta mukofoti belgilangan vaqtda to'lanmasa;

5.5.2. Ariza-anketa sug'urta hodisasi yuz bermanidan keyin rasmiylashtirilgan/tuzilgan bo'lsa;

5.5.3. Ariza-anketada keltirilgan sug'urtalangan mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsda yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;

5.5.4. Sud Shartnoma/Polisni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa.

5.6. Sug'urta Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni chegirib qolangan holda qaytariladi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchiga to'langan sug'urta tovoni esa, bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarilishi lozim.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi quyidagilarga haqli:

6.1.1. ushbu shartnoma yoki berilgan sug'urta polisining amal qilish muddati davomida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;

6.1.2. sug'urta tovonini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnomada va berilgan sug'urta polislari (elektron sug'urta polislari) nazarda tutilgan muddatlar va miqdordorda uni olishni talab qilish;

6.1.3. bir tomonlama tartibda mazkur shartnoma muddatidan oldin O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va ushbu shartnoma shartlariga muvofiq bekor qilish;

6.1.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash rad etilganligi ustidan sudga shikoyat qilish;

6.1.5. Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

6.2. Sug'urta qildiruvchi/Garovga qo'yuvchining majburiyatları:

6.2.1. ushbu shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash;

6.2.2. Sug'urtalovchining so'roviga binoan sug'urta hodisasi sodir bo'lgan fakt va holatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotlarni taqdim etish;

6.2.3. sug'urta hodisasi sodir bo'lishini oldini olish bo'yicha barcha choralarini ko'rish;

6.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ogohlantiruvchi tadbirlarni o'tkazish;

6.3.2. Sug'urta qildiruvchi/garovga qo'yuvchi tomonidan yetkazilgan moddiy zararni baholash bo'yicha taqdim etilgan hisobotdan norozi bo'lgan taqdirda, qonunchilikda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish;

6.3.3. agar ushbu Shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, sug'urta hodisasi yuz bermanligi va sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish;

6.4. Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

6.4.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Qarz oluvchiga mazkur Shartnoma bo'yicha maslahatlar berish;

6.4.2. Mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda va tartibda sug'urta polisini taqdim etish;

6.4.3. sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, ushbu Shartnomada belgilangan tartibda va miqdorda Sug'urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lash;

6.4.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi va /Qarz oluvchi haqida va ularning mulkiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik, O'zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH VA SUG'URTA TOVONINI TO'LASH

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha transport vositasiga mazkur shartnomada keltirilgan voqeа sodir bo'lgan hollarda Sug'urtalovchiga nisbatan sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi da'vo qilish uchun asos bo'lishi mumkin, Qarz oluvchi yoki uning notarial tasdiqlangan vakili quyidagilarga majbur:

7.1.1. voqeа haqida darhol vakolatli organlarga (yo'l harakati xavfsizligi organlari, yong'in xavfsizligi organlari, ichki ishlар organlari va boshqalar) xabar berish;

7.1.2. bu haqda Sug'urtalovchini imkon qadar qisqa vaqt ichida, lekin 72 (yetmish ikki) soatdan kechiktirmay xabardor qilishi va voqeа sodir bo'lgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Sug'urtalovchiga hodisaning sabablari va sharoitlari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'rsatgan holda yozma xabar yuborishi.

7.2. Sug'urta tovonini to'lash uchun arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

7.2.1. sug'urta polisi;

7.2.2. haydovchilik guvohnomasining nusxasi va fuqarolik pasporti (Shaxs guvohnomasi-ID) nusxasi;

7.2.3. transport vositasini ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining nusxasi;

7.2.4. transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma yoki boshqa hujjatlar nusxalari;

7.2.5. qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar, shu jumladan vakolatli organlarning hujjatlari, sud qarorlari, shuningdek sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqeа sodir bo'lgan joy, vaqt va sharoitlarni aniqlash uchun Sug'urtalovchi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zararlar va (yoki) o'g'irlangan qismlari (detallari) ro'yxati, voqeа ishtirokchilari va ularning aybdorlik darajasi.

7.3. Yo'l transport hodisasi (YTH) yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qayd etilganda yo'l harakati xavfsizligi vakolatli davlat organi tomonidan berilgan YTH to'g'risidagi ma'lumotnomा va **sud qarori**, unda voqeа joyi, vaqt va YTH ishtirokchilari, YTH ishtirokchilarining transport vositalariga yetkazilgan zararning ro'yxati va xarakteri, YTH har bir ishtirokchilarining O'zbekiston Respublikasi Yo'l harakati qoidalarini buzganligi yoki buzmag'anligi to'g'risida:

7.3.1. yong'in/portlash sodir bo'lganda – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan berilgan yong'in/portlash to'g'risida qarori;

7.3.2. tabiiy ofatlar sodir bo'lganda – O'zgidromet va/yoki O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotnomा (yoki boshqa hujjat);

7.3.3. voqeа sodir bo'lgan hududda voqeа joyi, voqeа sabablari, sanasi, ta'mirlash va tiklash bo'yicha zarar miqdori, agar tergov davomida aybdor aniqlangan bo'lsa u haqidagi ma'lumotlar, yot jismlarning qulashi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Ichki ishlар organlari yoki tozalash va (yoki) tartibni saqlashni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot (shu jumladan boshqaruv kompaniyasi, kommunal ta'mirlash avariya xizmatlari) tomonidan berilgan dalolatnomা (ma'lumotnomা).

7.3.4. huquqni muhofaza qiluvchi organning (ichki ishlар organlari, prokuratura) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarori yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori - o'g'irlilik (talonchilik), uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari;

7.3.5. ehtiyyot qismlar va materiallar ro'yxatini ko'rsatgan holda baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash bo'yicha barcha ishlар xarajatlari smetasining nusxasi;

7.3.6. sug'urta tovonini to'lash masalasini hal qilish va Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan zarar miqdorini aniqlash uchun boshqa zarur hujjatlar.

7.4. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni Sug'urta qildiruvchidan/Qarz oluvchidan, vakolatli organlar va tashkilotlardan talab qilishga, shuningdek yetkazilgan zararning sabablari, holatlari va hajmini mustaqil ravishda

aniqlashga haqli.

7.5. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi sodir bo'lgan har qanday yo'qotishlar va (yoki) zararlar haqida xabar berganida, Sug'urtalovchi o'z xodimini yoki boshqa shaxsni da'veoni ko'rib chiqish va hodisaning turi, sabablari va sharoitlarini batafsil o'rganish uchun yuborishga haqli.

7.6. Qarz oluvchi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga Sug'urtalovchi tomonidan talab qilinadigan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishda yordam berishga majburdir.

7.7. Barcha zarur hujjatlarni olgandan va ushbu hodisa bilan bog'liq barcha holatlarni o'rganib chiqqandan so'ng, Sug'urtalovchi hodisani **15 (o'n besh)** kun ichida sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

7.8. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish yoki to'lash to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga uning sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi yozma arizasidan keyin 5 (besh) kundan kechiktirmagan holda xabardor qilishi va rad etgan taqdirda, rad etish sabablarining asoslab berishi kerak.

7.9. Mazkur shartnomada transport vositasiga yetkazilgan tavakkalchilik bo'yicha nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, sug'urta tovoni ushbu Qarz oluvchiga yoki Naf oluvchiga quyidagi shartlarni hisobga olgan holda to'lanadi:

7.9.1. **Sug'urtalangan transport vositasi o'g'irlangan yoki to'liq yo'qolgan taqdirda** – ushbu Shartnoma bo'yicha ilgari amalga oshirilgan barcha sug'urta to'lovlari (agar mavjud bo'lsa) chegirib tashlangan sug'urta summasi doirasida;

7.9.2. **Sug'urtalangan transport vositasi shikastlanganda** – baholash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega baholovchi tashkilot tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash to'g'risidagi hisob-kitob/kalkulyatsiyasi **sug'urtalovchi tomonidan tan olinganda** sug'urta summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

7.10. Agar muayyan sug'urta polisi bo'yicha navbatdagi sug'urta badali to'langunga qadar (sug'urta badali kechiktirilganda) sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, Sug'urtalovchi to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'lovi miqdoridan unga to'langan sug'urta mukofoti va muddati o'tgan sug'urta mukofotini hisobga olgan holda mutanosib ravishda sug'urta tovonini cheklashga haqli.

7.11. Mazkur Shartnoma bo'yicha sug'urta hodisasi e'tirof etilgan va sug'urta hodisasi to'g'risidagi Qaror imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida oluvchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lарini o'tkazish yo'li bilan sug'urta tovoni amalga oshiriladi.

7.12. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi uchun aybdor shaxs tomonidan yetkazilgan zarar to'liq qoplangan **yoki da'vodan voz kechilgan** bo'lsa Sug'urtalovchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta tovonini olish huquqini yo'qotadi.

7.13. agar Sug'urta qildiruvchi muayyan sug'urta polisi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta tovoni doirasida sug'urta summasini tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lamagan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta summasini to'langan sug'urta tovoni miqdoriga mutanosib ravishda kamaytiradi.

7.14. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasini hisobga olib, Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatları sug'urta tovoni to'langandan so'ng kamaygan chegarasi doirasidan oshgan qismi navbatdagi sug'urta tovonini to'lashga asos bo'lmaydi.

7.15. Muayyan sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta tovoni to'langan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urtalangan transport vositasining shikastlangan qismlarini talab qilishga haqli.

7.16. Sug'urtalangan transport vositasiga yoki uning shikastlangan qismlariga bo'lgan mulk huquqi Sug'urta tovoni to'langan summa doirasida Sug'urtalovchiga o'tadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 958-moddasi).

7.17. Sug'urtalangan transport vositasining 80 foizi konstruktiv tarzda yo'qolgan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lagandan so'ng, Qarz oluvchi Sug'urtalovchining foydasiga transport vositasiga bo'lgan huquqdan voz kechadi (Abandon).

8. SUBROGATSIYA

8.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq transport vositasiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hодисаси sodir bo'lganda sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zarar Sug'urtalovchi to'liq yoki qisman sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, to'langan summa doirasida zarar yetkazgan aybdor shaxsga da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi, bunda Qarz oluvchi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat berilgan shaxslar aybdor hisoblangan hollar bundan mustasno.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasi talablari doirasida Sug'urtalovchining o'ziga berilgan da'vo huquqini amalga oshirishi uchun Sug'urta qildiruvchi va (yoki) qarz oluvchi Sug'urtalovchiga barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni hujjatlar va dalillarni topshirishlari shart.

8.3. Agar Qarz oluvchi yoki boshqa sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxs Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki ularning aybi tufayli ushbu huquqdan foydalanish imkonsiz bo'lganda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki tegishli qismi doirasida to'lashdan ozod qilinadi va to'langan sug'urta tovonini qaytarilishini talab qilishga haqli.

9. KORRUPSIYA VA JFODLTMVOQQTMGA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilaolri harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarini to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan haraktlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi.

9.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qiqlanadi.

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. Sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga rioya etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har

bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Sharhnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'lmas holatlar (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Sharhnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'lovnini amalga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Sharhnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlari quyidagilar kiradi: ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'limgan va kutilmagan holatlar; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlar o'tasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlar Sharhnomanining bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Sharhnomalar shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishuv bilan amalga oshiriladi. Ushbu Sharhnomalar shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu sharhnomalar shartlari o'zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu sharhnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma sharhnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu sharhnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirishga tomonlarning yozma roziligidan yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu sharhnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining sharhnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu sharhnomalar, ilova va ushbu sharhnomalar bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Sharhnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Sharhnomalar tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu sharhnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning oldindan yozma roziligidan oshkor qilmaydi.

10. SUG'URTA LOVCHINING REKVIZITLARI:

To'liq nomi: "KAPITAL SUG'URTA" AJ

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., M.Gandi ko'ch., 44

Elektron manzili: info@kapitalsugurta.uz

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar: Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1997 yil 21 avgust sanada davlat ro'yxatidan o'tkazilgan

Litsenziya to'g'risida ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan 2022 yil 22 oktyabr sanadagi 049696-sonli Litsenziya berilgan.